



## МАКТАБГАЧА ТАЙЙОРЛОВ GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TA’LIMINING AHAMIYATI

*Xakimov A.O.*  
*NamDPI*

**Tayanch soʻzlar:** STEAM ta'limi, texnologiya, samaradorlik, integratsiya, art terapiya., fanlararo ta'lim, amaliy faoliyat, raqamli vositalar, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, fan, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika.

**Ключевые слова:** Образование STEAM, технологии, эффективность, интеграция, арт-терапия, междисциплинарное образование, практическое деятельность, цифровые инструменты, творчество, критическое мышление, наука, технология, инженерия, искусство, математика.

Key words: STEAM education, technology, efficiency, integration, art therapy, interdisciplinary education, practical activities, digital tools, creativity, critical thinking, science, technology, engineering, art, mathematics.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim shakllaridan hisoblangan STEAM ta'limning rivojlanishi, imkoniyatlari, yutuqlari haqida fikr bildirilgan va bu imkoniyatlardan foydalanilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarining o'qish savodxonligini rivojlantirish samaradorligi oshishi haqida fikr yuritilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье высказано мнение о развитии, возможностях, достижениях STEAM-образования, которое является одной из современных форм обучения, и при использовании этих возможностей повысится эффективность развития обучения к грамоте детей дошкольного возраста

### **SUMMARY:**

This article expresses an opinion on the development, possibilities, achievements of STEAM education, which is one of the modern forms of education, and using these opportunities will increase the effectiveness of the development of literacy training for preschool children.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2016-yildagi qaroriga binoan tamirtalab bog\_chalarmng ahvoli yaxshilandi, chekka joylarda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi, nafaqat ushbu muassasalarning tashqi va ichki korinishi yaxshilandi, ularning o'quv-metodik jihozlar bilan taminlanganlik

holati yaxshilandi. Shu bilan maktabgacha talim tizimida yangidan-yangi o'quv dasturlar, o'quv materiallar ishlab chiqildi. Masalan, STEAM talim tizimini misol qilib olsak bo'ladi. STEAM talim tizimiga kirgan beshta fan bo'yicha o'quv materiallar, o'quv dasturlar tizim bo'yicha malumotlar bilan maktabgacha talim tizimining xodimlari tanishtirish jarayonlari olib borilmoqda. Bu talim tizimini maktabgacha talim muassasalardan boshlash zarurligi shundaki, yoshlikdan olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir. Chunki yoshlikdan yani maktabgacha talim yoshidagi bolalarga kreativlikni, quntini, qiziquvchanlikni, ixtirochilikni o'rgata boshlasak u boladan kelajakda buyuk ixtirolar, kashfiyotlar kutishimiz mumkin. Yoshlikdan kreativlikni yoki barqaror diqqat oshirilsa bola oddiy gugurt chopidan yoki bir varoq qogozdan odamlarni lol qoldira oladigan inson bo'ladi. Zamonaviy dunyo ta'lim oldiga qiyin vazifalarni qo'yimoqda: bolani kelajakdagi jamiyatda hayotga tayyorlash, bu esa undan avvalo tez o'zgaruvchan ma'lumotlar bilan ishlashga qaratilgan maxsus intellektual qobiliyatlarni talab qiladi. Bugungi kunda STEAM – ta'lim dunyodagi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas. STEAM texnologiyasidan foydalanilganda maktabgacha tayyorlov guruhida ta'lim olayotgan bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi. STEAM- hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Bizning dunyomizni texnologiyasiz



tasavvur etishning iloji yo‘q. Bundan keyin ham texnologik rivojlanish davom etadi va STEAM ko‘nikmalari bu-rivojlanishning asosi bo‘lib hisoblanadi. STEAM bolalarni ilhomlantiradi. Bolalar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar zavqlanib o‘ynashadi. STEAM-bolalarning intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan rivojlantiradi. U bolalarning aniq tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlanishiga qaratilgan o‘quv dasturiga asoslanadi. STEAM- ta‘lim texnologiyasi quyidagicha ma‘no kasb etadi. S- Science (Fan), T- Technology (texnologiya), E- Engineering (Muhandislik), A-Art (San‘at), M –Mathematics (Matematika). Biz yaxshi bilamizki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar faoliyati rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etiladi. Bu markazlar quyidagilar:

- Til va nutq;
- Ilm fan va tabiat;
- San‘at;
- Qurish-yasash va konstruksiyalash;
- Sujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish makazi;

Rivojlantiruvchi markazlar bolalar faoliyati mazmunini samarali tashkil etish uchun xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi markazlar STEAM integratsiyalagan sohalarni o‘zida aks ettiradi. Bolalarni STEAMga jalb qilish, ushbu ta‘lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bo‘g‘chasiga kiritish zarur. STEAM ta‘lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat-muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, STEAM- tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san‘at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnologiyasi ta‘limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta‘minlab beradi. Bolalar o‘zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi. Bu esa STEAM texnologiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o‘rni borligini ko‘rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta‘limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo‘llash tavsiya qilinadi. Maktabgacha tayyorlov guruhida ta‘lim olayotgan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, bolalarning rivojlanishi, ularning o‘qish va maktab ta‘limiga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda STEAM ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash, bolalarni o‘qish savodxonligini rivojlanishiga



va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha tayyorlov guruhida ta'lim olayotgan bolalar bilan STEAM ta'limi asosida faoliyat olib borilganda o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida o'z samarasini beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'lim tizimi yoshlikdan oddiy muammolarni kelajakda esa qiyin muammolarni hal qilishni o'rgatuvchi tizimdir. Shuning uchun STEAM ta'limni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlash zarur. Chunki maktabgacha ta'lim tizimiga bolalarni 3 yoshdan 6 yoshgacha qamrab olingan bo'ladi, bola uch yoshdan boshlab psixologik jihatdan rivojlanishi jadallashadi. nima qilmoqchiligi, nima qilish kerakligini tushunadigan yoshda bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018.
2. Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 5-sentabrdagi «2018- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi» gi PQ – 3931 – son Qarori.
3. R.A.Mavlonova , N.H.Raxmonqulova , K.O.Matanazarova , M.K.Shirinov , S.Hafizov «Umumiy pedagogika» . «Fan va texnologiya» nashriyoti T:2018.
4. O'tkir Tolipov , Dilnoz Ro'zieva «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat » » Toshkent innovatsiya – Ziyo » T: 2019.
5. Z. Ashurova » Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish .Metodik qo'llanma . Buxoro:2020.
6. Z. M. Ashurova » Maktabgacha ta'limda STEM texnologiyasining ahamiyati . T:1:1 (2022)
7. A.K.Xamrayevna."Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qo'llash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi" - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66